



IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **69,9 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida **3 698** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **98,9** foizni tashkil qildi.



Eng ko'p yangidan tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 1 361 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 810 ta, sanoat tarmog'ida 462 ta, yashash va ovqatlanishda 291 ta, qurilish tarmog'ida 170 ta, tashish va saqlashda 91 tani tashkil etilgan.



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 69,9 foizi (2024- yil yanvar-sentabrda 70,0 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.



sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 13 547,2 mlrd. so'mni (39,8 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 821 tani tashkil etdi);



35 004,7 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,2 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 469 tani tashkil etdi;



11 225,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 38,8 foizi) 2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 92,7 foizni tashkil etdi;



9 239,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 72,4 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 1 939 tani tashkil etdi);



- avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,0 foizga (viloyatning jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 89,4 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 2,8 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 93,2 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 755 tani tashkil etdi);




chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 94,9 foizi yoki 19 409,7 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 73,2 foizi yoki 17 288,9 mlrd. so'mni, tashkil qildi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 9 607 ta.




141,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 34,6 foizi) 228,7 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 48,5 foizi) ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi




	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	35 004,7	99,2
Sanoat	13 547,2	39,8
Qurilish	9 239,7	72,4
Chakana savdo	19 409,6	94,9
Yuk tashish, mln tn.	34,4	89,4
Yo'lovchi tashish, mln. kishi	251,5	91,8
Eksport, mln. AQSH doll.	141,5	34,6
Import, mln. AQSH doll.	228,7	48,5

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti
(ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik
tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




2025- yil 1- oktabr holatida 44 027 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil etdi.




Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo tarmog'ida barcha ro'yxatdan o'tganlarning (35,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (21,2 %), sanoat (13,5 %), qurilish (8,5 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,1 %), tashish va saqlash (2,8 %) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi




Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (1 820,7 mlrd. so'm), Nishon (1 239,4 mlrd. so'm), Qarshi (877,7 mlrd. so'm), Chiroqchi (672,8 mlrd. so'm) va Kitob (631,1 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (5 692,9 mlrd. so‘m), Shahrisabz (1 591,8 mlrd. so‘m) shaharlari va Koson (1 413,7 mlrd. so‘m) va Qamashi (1 201,4 mlrd. so‘m) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko'rsatish hajmi va o'sish sur'atlari



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 69,9 foizni tashkil qilib, 2024- yilning mos davrida 70,0 foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko'kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Chiroqchi (100,0 %), Qamashi (95,6 %) tumanlari va Shahrisabz shahriga (86,6 %) hamda eng past ulushi Nishon (9,7 %) tumaniga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Koson tumani (115,8 %), Qarshi shahri (114,4 %), Nishon va G'uzor (113,4 %), Dehqonobod (113,2 %), Ko'kdala (113,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.